




# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

**Toshkent shahrida  
kichik tadbirkorlik  
2021- yil yanvar-sentabr**


# Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik




## Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi 49,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **34,0** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar- sentabr oylarida **12419** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,1** foizga ko'p demakdir.

## 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

### Savdo



### Sanoat



### Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **4859** ta, sanoatda **1636** ta, qurilish **1200** ta, yashash va ovqatlanishda **717** ta, axborot va aloqada **680** ta, tashish va saqlash **424** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Sanoat 35,0



Qurilish 64,6



Investitsiya 48,0



Savdo 60,8



Xizmatlar 40,5



Eksport 16,6



Import 48,9



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

96647




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

12419

2021- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021- yil yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

31,8%



Sanoat

17,3%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

1,0%



Qurilish

9,2%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,4%



Tashish va saqlash

4,3%



Axborot va aloqa

4,5%




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,8%



Boshqa faoliyat turlari

22,7%




2020 y.

2021 y.

Yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



## Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2020 y. yanvar-sentabr

■ 2021 y. yanvar-sentabr

## 2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chilonzor tumani – 12,8%, Yunusobod tumani – 12,1%, Mirzo-Ulug'bek tumani – 11,7%, Olmazor tumani – 9,9%, Shayxontohur tumani – 9,7%, Uchtepa tumani – 8,9%, Yashnobod tumani – 8,6% hissalariga to'g'ri keldi.





# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda  
4859 ta

Sanoatda  
1636 ta

Qurilishda  
1200 ta

Yashash va ovqatlanishda  
717 ta

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2021- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan **34,0** birlikni tashkil etdi.



Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra\*

2020- y.


31,0

2021- y.

34,0

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 68,7 birlik, Mirobod tumanida 53,0 birlik, Bektemir tumanida 47,9 birlik, Chilonzor tumanida 46,6 birlik, Sergeli tumanida 36,0 birlikni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra\*


**Eng yuqori ko'rsatkich**  
Yakkasaroy tumani  
- 68,7 birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**  
Bektemir tumani  
- 47,9 birlik.

**Past ko'rsatkich**  
Yangi hayot tumani  
- 12,8 birlik.

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 68,7 birlik, Mirobod tumanida 53,0 birlik, Bektemir tumanida 47,9 birlik, Chilonzor tumanida 46,6 birlik, Sergeli tumanida 36,0 birlikni tashkil qilgan.


2021- yilning yanvar-sentabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik  
subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **49,0** % ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-sentabrida **52,3** %).

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 462,4 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 16,6 % ini tashkil etdi.




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

## 2021 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chilonzor tumanida – 71,9%, Uchtepa tumanida-52,5 %, Bektemir tumanida – 47,1 % Mirzo-Ulug'bek tumanida – 45,1, Yashnobod tumanlarida – 41,7 % va eng kam ko'rsatkich Mirobod tumanida – 1,3 % ni tashkil etdi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **4287,6** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **48,9 %** ini tashkil etdi.



2021 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yangihayot tumanida – 79,8 %, Sergeli tumanida – 70,0 %, Olmazor tumanida – 65,1 %, Mirzo-Ulug'bek tumanida – 64,9 %, Yakkasaroy tumanida – 55,8 %. Eng past ko'rsatkich Yashnobod tumanida – 36,4 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **21 101,4** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Olmazor tumani (2901,8 mlrd. so'm), Chilonzor (2873,4 mlrd. so'm), Yashnobot (2754,4 mlrd. so'm), Sergeli (2311,9 mlrd. so'm) va Yunusobod (1784,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shayxontohur tumanida (772,2 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2021- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **35,0%** ni tashkil etdi.

## 2021- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Olmazor tumani (71,7%), Yunusobod tumani (55,1%), Sergeli tumani (51,1%), Chilonzor tumani (50,7%), Yangihayot tumanida (46,6%), Mirzo-Ulug'bek tumani (44,8%), Yakkasaroy tumani (41,6%), Uchtepa tumani (33,1%), Bektemir (30,4%) va Mirobod (21,8%) tumani tashkil etdi. Yashnobod tumanida (16,3%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **25 263,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **60,8** % ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **4,7%** ga o'sganligi kuzatildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Uchtepa tumani (3940,3 mlrd. so'm), Yunusobod (3077,4 mlrd. so'm), Chilonzor (3061,1 mlrd. so'm), Bektemir (2502,2 mlrd. so'm), Shayxontohur (2473,1 mlrd. so'm), Yakkasaroy (2399,1 mlrd. so'm) va Yashnobod (1788,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2021- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



■ hajm, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **12140,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **64,6%** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **105,6 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2021- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Mirzo-Ulug'bek (1638,0 mlrd. so'm), Yashnobod (1555,5 mlrd. so'm), Yakkasaroy (1264,4 mlrd. so'm), Yunusobod (1257,8 mlrd. so'm), Mirobod (1237,4 mlrd. so'm), Chilonzor (926,6 mlrd. so'm) hamda Sergeli (901,4 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



■ hajm, mlrd. so'm

○ o'sish sur'ati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 29981,1 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **40,5 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **110,7%** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Mirzo-Ulugʻbek tumani (3264,7 mlrd. soʻm) Yunusobod tumani (2991,4 mlrd. soʻm), Chilonzor tumani (3669,5 mlrd. soʻm), Mirobod tumani (2437,5 mlrd. soʻm), Shayxontohur (2853,9 mlrd. soʻm), Yakkasaroy (3017,4 mlrd. soʻm) va Uchtepa (2547,7 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.


2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati






## 2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 60,3 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 36,5 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 83,9 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 82,8 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,1 % ni tashkil qildi.




# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada 3213 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 974 (30,3%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 2032 (63,3%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 207 (6,4%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 0,4 % (14 ta), sanoatda – 16,6 % (534 ta), qurilishda – 7,0 % (224 ta), savdoda – 35,6 % (1142 ta), xizmatlar sohasida – 40,4 % (1299 ta) ni tashkil etdi.

2021- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Chilonzor 536 ta, Mirzo-Ulug'bek 457 ta, Olmazor 440 ta, Yakkasaroy 371 ta, Mirobod 358 ta tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




## 2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning III choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 35,8 % ni, savdo 32,7 % ni, qurilish sohasida 31,2 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoat sohasida 68,4 % ni, xizmatda 63,6 % ni, qurilishda 61,2 % ni tashkil etdi.

## 2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



## 2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli

bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 42,9 % ni, qurilish 40,1 % ni, sanoat sohasida 37,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida 58,7 % ni, xizmatlarda 58,0 % ni, sanoatda 57,7 % ni tashkil etdi.

